



ResearchGate



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

## SIFAT SO‘Z TURKUMINING GAPLARDA TUTGAN O‘RNI

To‘rayeva Xonzoda

Toshkent Moliya Akademik litseyining Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada sifat so‘z turkumi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ushbu so‘z turkumining aniq ta‘rifi keltirilgan. Maqolaning asosiy qismida sifat so‘z turkumining gap tarkibidagi vazifalari hamda ushbu so‘z turkumining darajalari ham keltirilgan.

### Kalit so‘zlar

Sifat, tub sifat, nisbiy sifat, sifatlovchi-aniqllovchi, aniqllovchi, kesim.

Predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o‘rin yoki vaqtga munosabati)ni ifodalaydigan so‘zlar turkumi sifat deyiladi. Sifatlar ot yoki fe‘lga bog‘lanib qanday?, qanaqa?, qaysi?, qachongi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Masalan, yashil qalam, mitti yulduz, kunbotar tomon, kuzgi tufli, afsonaviy qush, tajang odam, yaxshi o‘qimoq, chiroyli yozmoq.

XV—XIX asrlarga mansub manbalar tilida qayd etilgan sifatlar ham umuman turkiy tillardagi, xususan, o‘zbek tilidagi sifatlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, bulardan asosiylari quyidagilar:

Narsa-predmet va hodisalarning belgisini bildirish sifatning semantik asosidir. Belgi bildirish xususiyati va tabiati jihatidan tub (asliy) va nisbiy sifatlar bir-biridan qisman farqlanuvchi o‘zgachaliklarga egadir:

· tub sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi shu sifatning to‘g‘ridan to‘g‘ri ma‘nosidan anglashiladigan rang, tus, tur, tam, maza, hajm, vazn, me‘yor, sath, miqyos kabi doimiy sifatii belgilar bilan bog‘liq bo‘ladi, bu doimiy sifatii belgilar konkret va abstrakt xarakterda bo‘lishi mumkin. Masalan, oq olma, achchiq donak, achchiq dard;

Shuningdek, yaxshi, katta, uzun, qisqa, oq, qora, semiz, kamtar kabi tub so‘zlar asliy sifatlardir.

· nisbiy sifatda esa belgi tushunchasi shu yasama sifatga asos bo‘lgan so‘zdan anglashiladigan narsa-predmet yoki hodisa ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lib, uning belgi xususiyati boshqa turdagi narsa-predmet yoki hodisaga turli darajada nisbat berilishi orqali ifodalanadi. Narsa belgisini o‘rin yoki paytga nisbatlash, boshqa narsaga o‘xshatish, chog‘ishtirish kabi ma‘nolar vositasida ifodalaydigan sifat **nisbiy sifat deyiladi**. Nisbiy sifatlar affikslar orqali yasalgan sifatlardan tashkil topadi.

Ular ma‘no jihatdan a) belgini biror narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi: g‘ayratli yigit, chiroyli surat, devoriy gazeta, ko‘rpalik mato; b) belgini o‘rin va paytga nisbatlaydi: toshkentlik kishi, yerdagi olma, kuzgi shamol; d) belgini narsaning xususiyat, holatga nisbatlaydi: ko‘ngilchan odam, chopqir ot, tirishqoq talaba.

Sifat bog‘lanib kelgan ot turli so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanish mumkin, lekin sifat o‘zgartmaydi. Masalan, ko‘k qalam, ko‘k qalamning, ko‘k qalamdan.



Sifat gapda asosan a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: Bir ozdan so'ng **yoqimli** shamol esa boshladi; b) kesim bo'lib keladi: Osmon **tiniq**.

Sifatlar gapda aniqlovchi, kesim, hol bo'lib keladi

Quyidagi misollarda bunga guvoh bo'lish mumkin.

- Uning **moviy** ko'zlari onasi- Safurani eslatib turardi (F.Azimova). Ushbu gapda sifat so'z turkumi gap tarkibida aniqlovchi vazifasida kelgan.
- Non **aziz**, uning ushug'i ham **aziz** (Maqol). Ushbu gapda sifat so'z turkumi gap tarkibida kesim vazifasida kelgan.
- Chaqmoq telpagini **qiyshiq** qo'ndirib olgan (O'.Hoshimov). Ushbu gapda sifat so'z turkumi gap tarkibida hol vazifasini bajargan.

Sifat ba'zan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi:

- U do'stining yuragida kechayotgan tuyg'ularni **yaxshi** tushunardi.

Sifat turkumiga oid so'zlarning katta qismini yasama sifatlar tashkil qiladi. Yasama sifatlar ikki xil yo'l bilan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) hosil qilinadi.

Morfologik usul bilan sifat yasalishi uzoq, tarixga ega bo'lgan asosiy usuldir. Sifat yasalishiga asos bo'lgan o'zak morfema ism yoki fe'l turkumiga oid bo'lishiga qarab yasovchi morfemalar ham ismlardan yoki fe'llardan sifat yasovchi tarzida ikkiga bo'linadi. Sifat yasovchi affikslar tarixan ko'p bo'lmagan, ular hozir ham unchalik ko'p emas. Tekshirilayotgan davr tilida ular qo'llanish darajasiga ko'ra bir xil emas: ba'zilar unumli, ba'zilar esa unumsizdir.

Sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan sifatlar sifat turkumiga mansub leksik birliklarning katta qismini tashkil qilgan. Ular sifat va boshqa turkumlarga mansub so'zlarning bir-biri bilan turli kombinatsion vositalar yordamida birikuv, juftlashuvi, takrorlanuvi va tiziluvchi orqali hosil bo'lgan. Ular tarkibiy qismlarining birikuv tarziga ko'ra qo'shma va murakkab sifat yasaladi. Sintaktik usul bilan yasalgan sifatlar turg'un bo'lmaydi va u ko'proq uslubiy vazifa bajaradi.

Sifatning morfologik belgisi — daraja kategoriyasiga egaligidir. Belgining oddiy darajaga ko'ra nisbatlab, farqlanishi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalarining quyidagi turlari bor:

**Oddiy daraja.** Bir narsa belgisining boshqa narsa belgisiga nisbatlanmay ifodalanishi oddiy daraja deyiladi. Bunday sifatlar daraja bildiruvchi affikslarga ega bo'lmaydi. Masalan: yorug', yaxshi, og'ir, chaqqon, yumshoq, baland, to'g'ri.

**Qiyosiy daraja** belgining oddiy darajaga nisbatan ortiq yoki kam ekanligini qiyoslab ko'rsatadi. Qiyosiy darajadagi sifat asosan **-roq** affiksi bilan shakllanadi: kattaroq, kichikroq, ko'kroq, balandroq, mazaliroq, achchiqroq.



Qiyosiy daraja, odatda, ikkita narsa, hodisa, voqea yoki holat ishtirokida hosil bo‘ladi. Bunda qiyoslanayotgan narsalarning belgisi ... **-ga nisbatan (qaraganda) ... -roq** yoki ... **-dan (ko‘ra) ... roq** qolipi asosida voqelanadi: Bugungi shamol kechagiga qaraganda kuchliroq. Tut terakdan pastroq. Asal shakardan ko‘ra shirinroq.

Qiyoslash ma‘nosi chiqish yoki jo‘nalish kelishigidagi ot + ko‘ra, nisbatan, qaraganda so‘zlaridan biri hamda oddiy darajadagi sifat birligi orqali ham ifodalanishi mumkin: Alisher boshqa bolalarga qaraganda zehni, mehnatsevar chiqdi.

Ba‘zan bunday ma‘no –roq ko‘rsatkichli sifatning yakka o‘zi orqali ham hosil bo‘lishi mumkin: Qalbdan aytilgan tashakkurdan **qimmatliroq** mukofot bo‘lmaydi.

**Orttirma daraja** belgining oddiy darajadan ortiq, yuqori ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagicha usullar vositasida hosil bo‘ladi:

**1. Fonetik usul:** a) sifatning bosh qismi va oddiy darajadagi shaklning maxsus takrori orqali: ko‘mko‘k, dum-dumaloq, yam-yashil, oppa-oston, teppa-teng; b) sifat tarkibidagi unlini cho‘ziq talaffuz qilish orqali: baaland, achchiq.

**2. Leksik usul:** a) sifat oldidan **eng, juda, g‘oyat, g‘oyatda, nihoyatda, behad, biram, tim, naq, cheksiz** kabi so‘zlarni keltirish orqali: juda go‘zal, behad xursand, nihoyatda baland, g‘oyat minnatdor, biram yoqimli, o‘ta g‘irrom, o‘lgiday ziqna, naqadar ulug‘vor, tim qorong‘u; b) turg‘un birikmalarni sifat oldidan keltirish orqali: xaddan ziyod achchiq, haddan tashqari maroqli, bahosi yo‘q juvon; v) takroriy sifatlarni ot oldidan keltirish orqali: baland-baland imoratlar, zo‘r-zo‘r yigitlar, hashamatli-hashamatli binolar, shirin-shirin orzular.

Bulardan tashqari, shirindan shirin, uzindan uzoq kabi morfologik ko‘rsatkichlar ishtirokida ham orttirma daraja hosil qilinishi mumkin.

**Ozaytirma daraja** ko‘proq rang-tus belgilariga xos bo‘lib, belgining oddiy darajadan kamligi, pastligini ifodalaydi. Ozaytirma darajadagi sifatlar quyidagicha usullar yordamida hosil qilinadi:

**1.Leksik usul.** Belgining kuchsizlik darajasi sifat oldidan yarim, nim, och, xiyol, xiyla, sal, aytarli, u qadar kabi maxsus yordamchi so‘zlarni keltirish yordamida hosil qilinadi: sal durust, xiyol ochiq, bir oz yaxshi, yarim qorong‘u, nim pushti, xila shum, u qadar shirin emas. Bunda ba‘zan–**roq** affiksi ishtirok etishi ham mumkin: sal g‘o‘roq, xiyol kichikroq, bir oz torroq kabi.

**2.Morfologik usul.** Bunda darajaning kuchsizligi oddiy darajadagi sifatga quyidagi affikslarni qo‘shish orqali shakllanadi:

a)–ish affiksi orqali: qizg‘ish, sarg‘ish, ko‘kish, oqish;

b)–mitir\-imtir affiksi orqali: qoramtir, ko‘kimtir, oqimtir;



d)–gina\–kina\–qina affiksi orqali: kattagina, shiringina, oppoqqina, kichikkina.

e)–roq affiksi qiyosiy daraja hosil qilish bilan bir qatorda, belgining kuchsizlik darajasini shakllantirishda ham ishlatiladi.

Xulosa o‘rni shuni aytish mumkinki, sifat so‘z turkumi gapda asosan aniqlovchi bo‘lib keladi va ushbu so‘z turkumi gapda boshqa vazifalarni ham bajara oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev S., Azimov I. O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bakalavriyat talabalari uchun o‘quv qo‘llanmasi sifatida tavsiya etgan. TOSHKENT – 2007. 20-bet.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2006.
4. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – Toshkent, 1974.

WORDLY  
KNOWLEDGE